

Parazitar Gelmintozlarning Aholi O‘Rtasida Tarqalishi Va Epidimologik Xususiyatini O‘Rganish

Qurbonov Abduburhon Qo‘ziboyevich

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Maxmedov Suxrobjon Vahobjon o‘g‘li, Yuldoshov Jasurbek Davron o‘g‘li

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son davolash fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Paxtachi tumanida 2024–2025 yillarning dastlabki choragida uchragan gelmintozlarning epidemiologik xususiyati o‘rganilgan. Bu parazitlar ko‘plab mintaqalarda, ayniqsa, sanitariya-gigiyena sharoiti past bo‘lgan joylarida sog‘liqni saqlash muommasi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun maqolada gelmintozlarning etiologiyasi, yuqish va tarqalish yo‘llari, hamda diagnostika usullari yoritilib, lokal epidemiologik holatga asoslangan asosli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: gelmintoz, enterobioz, gimenolepidoz, exinokokkoz, teniarinxoz, epidemiologiya, parazitar kasalliklar, sanitariya- gigiyena, Paxtachi tumani, diagnostika, profilaktika.


Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning o‘zidagina 889,714.000 ta inson parazitar kasalliklar bilan zararlangan. Bu dunyo aholisining 11,12 foizi zararlangan degani. Shundan 1) Tuproq orqali yuqadigan gelmintozlarning 2023-yilda dunyo bo‘yicha 642,7 million yangi holat qayd etilgan. 2) Shistosomozning 2023-yilda dunyo bo‘yicha 11,792 ta yangi holati qayd etilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti parazit kasalliklarini oldini olish uchun samarali profilaktik choralar va keng qamrovli jamoat ishlari tashabbuslarini ishlab chiqqan. 1) Parazitar kasalliklarning ko‘pchiligi ifloslangan suv va sanitariya sharoitlarining pastligi bilan bog‘liqligi tufayli, rivojlanayotgan mintaqalarda toza ichimlik suvi va samarali sanitariya tizimlarini yaratish zarur. 2) Maxsus profilaktik davolash kurslarini barcha xavf guruhlari odamlar uchun tashkil qilish zarur, ayniqsa, bolalar va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchilar uchun. 3) Mahalliy aholi orasida parazitar kasalliklar va ularning oldini olish haqida ta‘lim berish. Parazit kasalliklari tarqalishining oldini olishda aholini xabardor qilishning ahamiyati katta. [4]

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida ham parazitar kasalliklarning dolzarbligi yuqori bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi 2024–2025 yillarning birinchi choragiga oid statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinganda enterobioz, gimenolepidoz, exinokokkoz va teniarinxoz gelmintozlarning kamayib borilayotgani kuzatilmoqda. 2024-yilning birinchi choragida Paxtachi tumanida 155650 nafar, 2025-yilning birinchi choragida 157853 nafar aholi istiqomat qiladi. Shundan 2024-yilning birinchi choragida 301 ta kasallik uchragan, 2025-yilning birinchi choragida esa 218 ta xolat aniqlangan. Bu albatta aholining turmush tarzi yaxshilanayotganidan darak beradi. [5]

Paxtachi tumani Parazitologiya bo‘limida 2024–2025-yillarning birinchi choragida parazitar kasalliklar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar

2024–2025-yillarning birinchi choragida statistikada parazit kasalliklarning soni kamayib borayotgani tasvirlangan. Bunda Enterobioz +40 (2024-yil 163 nafar, 2025-yilda 123 nafar), Geminolpidoz +42 (2024-yil 131 nafar, 2025-yilda 89 nafar), Teniarinxoz +3 (2024-yil 6 nafar, 2025-

yilda 3 nafar) ko'rsatkichga ega. Ammo Exinokokkoz -2(2024-yilda 1 nafar,2025 yilda 3 nafar)ni tashkil etadi.Exinokokkoz esa kam uchrasa-da, klinik kechishi og'ir bo'lib, ko'pincha jarrohlik aralashuvini talab etishi uni alohida xavfli guruhga kiritadi. [5]



1-rasm

Maqolada bayon etilgan gelmintlarning morfologik tuzilishi, parazitlik qilish xususiyatlari, yuqish yo'llari, klinik belgilar, zamonaviy diagnostik vositalar (najas va qon tahlillari,) orqali aniqlanishi ularning tibbiy-profilaktik muhimligini ko'rsatadi. Shu qatorda parazitlar kasalliklar epidemiologiyasi chuqur o'rganilgani, profilaktika choralari kuchaytirilgani va keng qamrovli sog'lomlashtirish tadbirlari amalga oshirilgani taqdirda, ularni kamaytirish mumkin. Bunday yondoshuv JSST da balki O'zbekistonda ham takomillashgan.Masalan Respublika parazitologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Toshkent) parazitlar kasalliklar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boradi, diagnostika usullarini ishlab chiqadi va xalqaro tajribalarni joriy etadi. Institut parazitologiyaning turli tarmoqlarini, jumladan, gelmintozlar, protozoalar va ekzoparazitlar bilan bog'liq kasalliklarni o'rganadi. Paxtachi tumanida ham bosqichma bosqich gelmentozlarni kamaytirishga doir ishlar ko'rib chiqilmoqda.

Ushbu maqolani yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad —Paxtachi tumani misolida parazitlar kasalliklarning tarqalish holatini tahlil qilish, ularning etiologiyasi, yuqish mexanizmlari, klinik

xususiyatlari hamda diagnostika va profilaktikasi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishdan iboratdir. Paxtachi tumanida enterobioz, gimenolepidoz, exinokokkoz va teniarinxoz kabi parazit kasalliklarining tarqalishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni (gigiyena, sanitariya, tibbiy xizmatlar va boshqalar) aniqlash. Bu tahlil, kasalliklarning oldini olish uchun profilaktik choralarga e'tibor qaratishga yordam beradi. Shu orqali tumandagi mavjud epidemiologik vaziyatga chuqur yondashib, aholi sog'lig'ini saqlash, parazitlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish va kelgusida parazitlar invazyalarni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga erishish ko'zda tutilgan.

Maqola Paxtachi tumani Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining 2024-2025 yillarning dastlabgi 4 oyligi statistikasi ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, lokal holatni o'rganish orqali mintaqaviy darajadagi sog'liqni saqlash siyosatini takomillashtirishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hududiy sog'liqni saqlash xizmatlarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar berish, bu, nafaqat Paxtachi tumanida, balki boshqa o'xshash mintaqalarda ham parazitlar kasalliklar bilan kurashish uchun foydali bo'ladi.

Odam organizmida eng ko'p uchraydigan parazitlar – bu gelmintlar. Gelmintlar – parazit chuvalchanglarning keng guruhini tashkil etadi. Ular o'z tuzilishi, rivojlanish bosqichlari va zararlovchanlik darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ular yassi, halqali yoki tog'arak shaklda bo'lishi mumkin. Gelmintlar ichida xalq orasida eng ko'p tarqalganlari – enterobioz (ostritsa), askaridoz, gimenolepidoz, exinokokkoz hamda lyamblyoz hisoblanadi. Bu parazitlar asosan iflos suv, oziq-ovqat, notoza qo'llar, tuproq, hayvonlar bilan muloqot orqali yuqadi. Eng oddiy sabablardan biri gigiyena qoidalariga amal qilmastir.

Exinokokkoz kasalligini - tasmasimon chuvalchanglarga mansub exinokokk (*Echinococcus granulosus*) chaqiradi. Uning uzunligi 2-6 mm, tanasi stoleksva 3-4 bo'g'imdan iborat. Skoleksida 4 ta so'rg'ichi va xartumi bor. Xartumi ikki qator joy-lashgan, 28-40 tacha xitinli ilmoq-chalar bilan qurollangan. Exinokokk pufaklari no'xatdek, yong'oqdek, olmadek, yosh bola boshiga teng keladiganlari va undan ham katta bo'ladi. Masalan, exinokokk pufagi bilan zararlangan sigir o'pkasida og'irligi 32 kg, jigarida esa 64 kg keladigan finna topilganligi va bunday finnadan 43 litrdan ortiq suyuqlik olinganligi fanga ma'lum. Bunday miqdordagi suyuqlik xo'jayinining organizmini albatta kuchli zaharlaydi. Exinokokk bilan kasallangan bir bosh qo'ydan o'rtacha 2,5 kg go'sht, 300 g yog', 100 g jigar va 400 g o'pka hamda jun mahsulotlari kam olinadi. [2]

Eng keng tarqalgan kasalliklardan yana biri – enterobioz, ya'ni ostritsa (*Yassi chuvalchanglar tipi, yumaloq chuvalchanglar sinfi vakili, Enterobius vermicularis*) chaqiradigan gelmintoz kasalligi hisoblanadi. Bu kasallik odamlar, ayniqsa, bolalar o'rtasida ko'p uchraydi. Ostritsalar kichik o'lchamdagi urg'ochisining uzunligi 10-12 mm, erkagining esa 2 mm dan 5 mm gacha oqish rangli ipsimon chuvalchang bo'lib, ingichka ichak oxiri va yo'g'on ichakning boshlang'ich qismida yashaydi. Kechasi anal teshigi atrofiga 12 mingta shaffof yoki biroz sarg'ish rangdagi tuxum qo'yadi, bu esa qattiq qichishishga sabab bo'ladi. Ana shu payt bolada nerviylik va holdan ketiush kuzatiladi) Bola qashigan qo'llari orqali tuxumlarni yana og'ziga olib boradi va kasallikni qayta yuqtiradi (avtoinvaziya). Shu tariqa infeksiya aylanishi davom etadi (autoreinvaziya). Diagnostikasi – “Skotch testi” (sellofan lenta usuli)-eng ishonchli usul. Ertalab, bola hojatga bormasdan va yuvinmasdan turib, anal sohasiga shaffof lenta yopishtiriladi, keyin u mikroskop ostida tekshiriladi. Bu orqali tuxumlar aniqlanadi. Test 3 kun ketma-ket bajarilsa, aniqlik oshadi. „Nativ surkash” usulida esa kam natija beradi. Bunda glitserinning 50%li eritmasiga no'xat kattaligidagi najas solinib aralastiriladi va buyum oynasiga surtulib mikroskop ostida tekshiriladi. [1]

Gimenolepidoz kasalligini *hymenolepis nana* (pakana gijja – Yassi chuvalchanglar tipi, tasmasimon chuvalchanglar sinfi vakili) deb ataluvchi mayda (1,5-4 sm) chuvalchang chaqiradi. Bu parazitlar ham odatda bolalarning ingichka ichagida parazitlik qiladi. Gimenolepidozda ham avtoinvaziya kuztilishi mumkin. Kasallik ishtahaning yo'qolishi, ich ketishi yoki qotishi, asabiylik va umumiy holsizlik bilan kechadi. Profilaktikasi: umumiy gigiyena qoidalariga amal qilish. [3]

Qoramol solityori (*Taeniarhynchus saginatus*) ilmoqsiz gijja bo'lib, qurollanmagan solityor deb ham ataladi. Parazit odamning ingichka ichagida yashab, teniarinxoz kasalligini qo'zg'atadi. Solityorning

tanasi oq rangda bo'lib, tasma shaklidir. Uning uzunligi 4-10 metrgacha boradi. Chuvalchangning tanasi hamma tasmalilarga xos tu-zilgan bo'lib, uch qism: boshcha-skoleks, bo'yin va tana qismi strobiladan iborat .Profilaktikasi:xom yoki chala pishgan go'shtni iste'mol qilmaslik, xom qiymani tatib ko'rmaslik, veterinariya-sanitariya nazoratidan o'tmagan go'shtni ovqatga ishlatmaslik.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolikov P. X., Qurbonov A. Q., Daminov A. O. Tibbiy biologiya va genetika. – Toshkent: Ijod-print, 2019. – 472 b.
2. S.Dadayev.Parazitalogiya.-Toshkent:„O'ZBEKISTON”,2006.-85 b
3. DJ. A. Azimov, A. I. Yatusovich, X. B. Yunusov, R. B. Davlatov, B. T. Norqobilov, Sh. A. Djabborov, A. S. Daminov, A. O. Oripov, A. G. G'afurov, N. E. Yuldashov, Sh. X. Qurbanov.:PARAZITOLOGIYA VA INVAZION KASALLIKLAR:Toshkent-2024 "Fan ziyosi" 115-119b
4. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Global vaccination strategy 2022–2023 // WHO.int. –2022.– URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789240055125>
5. Paxtachi tumani sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi. 2024-yil epidemiologik holat bo'yicha statistik axborot. – Paxtachi: Paxtachi TSEOM, 2025. – 12 b.